Texnikumlarni muvaffaqiyatli yakunlab, Andijon davlat universiteti Ekolologiya va atrof muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-kursida o'qishni davom ettirish istagida bo'lgan bituruvchilar uchun

SAVOLLAR TO'PLAMI

1. Insonning qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqi qaysi qonun bilan mustahkamlangan?
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida atrof tabiiy muhit muhofazasiga bevosita taalluqli nechta modda mavjud va ularning mazmun mohiyatini yoriting?
3. O'zbekistonda "Ekopolitsiya"ni tashkil etishdan nima maqsad ko'zlangan va atrof-muhitni muhofaza qilishda ularning roli qanday?
4. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash qaysi davlat organi vakolati hisoblanadi?
5. O'zbekistonning ekologiya sohasida qanday xalqaro hamkorlik aloqalarni o'rnatgan?
6. Markaziy Osiyoda suv muammolari va ularning ekologik-huquqiy yechimi qanday?
7. O'zbekistonda chiqindilar bilan bog'liq ekologik muammolarni yechishda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
8. "O'zbekiston Ekologik partiyasi" atrof-muhitni muhofaza qilishda qanday ahamiyat kasb etadi?
9. O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim qaysi ta'lim turlariga muvofiq amalga oshiriladi?
10. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida suvni tejashga doir innovatsion ishlar amalga oshirilmoqdami?
11. Yaqin yillarda Orol dengizi va u bilan bog'liq ekologik vaziyatni yumashtishga qaratilgan faoliyat to'g'risida gapiring.
12. O'zbekiston yetarlicha ekoturizm obyektlariga egami va bu sohani rivojlantirish uchun hukumat qanday ishlarni amalga bajarmoqda?
13. Ekologiya sohasidagi ma'muriy javobgarlik deganda nimani tushunamiz?
14. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunining mazmun va mohiyatini tavsiflang.
15. O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuni vazifalari nimalardan tashkil topgan?
16. O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunini maqsad va vazifalarini izohlang.
17. O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidi"gi qonunining maqsadi nimalardan tashkil topgan?
18. O'zbekistonda aholining ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan qanday davlat siysosati olib borilmoqda?

19. O‘zbekiston tabiatidagi noyob o‘simlik va hayvon turlarini saqlab qolishda “O‘zbekiston Qizil kitobi”ning ahamiyati.
20. O‘zbekiston tabiatidagi noyob o‘simlik va hayvon turlarini hamda tabiiy landshaftlarni saqlab qolishda muhofaza etiladigan hududlarning o’rni qanday?
21. Jamoatchilikning ekologik nazorati tabiatni asrashda qanday ahamiyat kasb etadi?
22. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidi”gi qonunining maqsadi nimalardan tashkil topgan?
23. O‘zbekiston atrof tabiiy muhitni ekologik monitoring qilish tizimini yo‘lga qo‘yilganmi?
24. Hududlarda tashkil etilayotgan ekoparklarning ahamiyati nimada deb o’ylaysiz?
25. Respublikaning viloyat markazlari va yirik shaharlari atrofida “yashil belbog‘”lar yaratishdan maqsad nima?
26. Ekologiya fanining ob’yekti va predmetni.
27. Ekologiya bir vaqtning o‘zida ham tabiiy ham itimoiy fan deganda nimani tushunasiz?
28. Tabiat nima uchun muhofaza qilinadi?
29. Bir o‘simlik yoki hayvon turining tabiatda yo‘q bo’lib ketishi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mimkin?
30. Davlatning iqtisodiy rivojlanishida ekologiya sohasining rolini muhim deb hisoblaysizmi?
31. Qaysi xorijiy davlatlarda ekologiya sohasi juda yuqori taraqqiy etgan va bunga ular qanday erishgan?
32. Ekologiya sohasidagi xalqaro tashkilotlarni bilasizmi?
33. Ekologiya sohasidagi qanday xalqaro kelishuvlarni bilasiz?
34. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo’mitasi hodimlari boshqa kasb egalaridan qaysi jihatlari orqali farq qiladi?
35. Ekologiya sohasining asosiy faoliyatini nimalar tashkil qiladi?
36. Ekologiya sohasining ijtimoiy ahamiyati.
37. Ekologik inqiroz nima?
38. Ekologik monitoring nima uchun kerak?
39. Ekologik ekspertiza nima uchun kerak?
40. Insonlarning sog‘lig‘i atrof muhitga qanday darajada bog‘liq?
41. Neft maxsulotlaridan yoqilg‘i sifatida foydalanadigan avtomobillar sonining ortishi qanday salbiy oqibatlarga olib keladi?
42. Yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish qanchalik muhim?
43. “Ekologik toza” mahsulot deganda nimani tushunasiz?
44. Ekologik ta’lim va tarbiyaning tabiatni muhofaza qilishdagi roli.
45. Global ekologik muammolarni sanab bering?
46. “Kislotali yomg‘irlar” haqida gapiring.
47. “Ozon tuynugi” haqida gapiring.

48. “Global isish” haqida gapiring.
49. “Cho’llanish” haqida gapiring.
50. Nima sababdan yer yuzining turli hududlarida iqlim turlicha bo‘ladi.
51. Ekologik sistemaga ta’rif bering.
52. Shaharlarda shovqinni kamaytish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak?
53. “Biotsenoz” va “biogeotsenoz” terminlari o‘rtasidagi farqni tavsiflang.
54. Ekologiya qanday vazifalarni hal qilishi kerak?
55. Aniq misollar asosida zamonaviy inson uchun ekologik bilimlar zarurligini tushuntiring.
56. Ekologiya nafaqat fan, balki yangi turmush tarzi va hayotning yangi ko‘rinishi ham, degan fikr bor. Uning ma’nosini tushuntiring.
57. Zamonaviy ekologiyaning qanday bo‘limlari mavjud?
58. Nima uchun ekologiya tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi?
59. Yer yuzida barcha redutsentlarning yo‘qolishi natijasida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin?
60. Ekologik huquqbuzarliklar uchun jazo turlarini kuchaytish kerakmi yoki aksincha? Fikringizni asoslang.
61. Yer yuzida qanday yashash muhitlari mavjudligini tushuntiring.
62. Mahalliy ekologik muammolarni oldini olishda qanday takliflaringiz bor?
63. Tirik organizmlarning yashash muhitiga moslashishining ahamiyatini aytib bering.
64. Biogeotsenozlarning o‘z-o‘zini boshqarishi deganda nimani tushunasiz?
65. Biogeotsenozlarning o‘z-o‘zini tiklashi va barqarorligi kabi ko‘rsatkichlarining mohiyatini tushuntiring.
66. Chiqindisiz texnologiyalar nima uchun kerak?
67. Belgilanmagan joylarga chiqindi tashlagan shaxslarga nisbatan qanday chora ko’rishni taklif qilasiz?
68. Ichimlik suvini tejash uchun nima qilish kerak?
69. Fikringizcha Orol dengizni qayta tiklash mumkinmi?
70. Yer yuzida o‘rmonlarni saqlab qolish uchun nima qilish kerak?
71. Muqobil energiyadan foydalanish qay darajada muhim?
72. Nima sababdan jahonda elektromobillarga bo’lgan talab ortmoqda?
73. Ekologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanish nima uchun kerak?
74. Global isishdan saqlanish uchun hukumat nimalarni amalga oshirish kerak deb o‘ylaysiz?
75. Ekologik bilimlarga barcha ega bo‘lishi shartmi?
76. Organizmlarning yashash muhitiga moslashuvi.
77. Populyatsiya haqida ta’limot.
78. Jamoalar (biotsenoz) haqida ta’limot.
79. Suv ekosistemalari va ularning asosiy xususiyatlari.

80. Biosfera haqida ta’limot.
81. Iqlim o’zgarishi va uning ta’siri.
82. Tabiiy resurslar klassifikatsiyasi.
83. Ijtimoiy va inson ekologiyasi.
84. Bioxilma-xillikni muhofaza qilish.
85. Muhofaza qilinadigan hududlar, qo’riqxonalar, milliy bog’lar.
86. Cheklovchi omillar.
87. Abiotik va biotik omillar.
88. Turlararo munosabatlarning kelib chiqishi va tasnifi.
89. Ekologik suksessiya.
90. O’simliklarning yorug’lik omiliga moslashishini tushuntirib bering.
91. Namlik omilining tirik organizmlar hayotidagi ahamiyati qanday.
92. Ekologik omil deganda nimani tushunasiz?
93. Biotop nima?
94. Ekologik piramida.
95. Atmosferaning tuzilishi.
96. “Qizil kitob” va uning ahamiyati.
97. O’simlik va hayvonlarni muhofaza qilishning qanday yo’llari mavjud?
98. Qanday global, regional va maxalliy ekologik muammolar mavjud?
99. Produtsent, konsument, redutsent funktsiyalari.
100. Gidrosfera qanday qobiq.